QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.016

“TARBIYA” FANINI O‘QITISH ORQALI O‘QUVCHILARNING JAMOADA ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH YUZASIDAN XORIJIY TAJRIBALAR TADQIQI

UDK: 37.02

***Abduraimov Sherali No‘monjonovich**, Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi mudiri, dotsent*
e-mail: sheraliphd1987@gmail.com, telefon:+998914894482
https://orcid.org/ 0009-0003-4358-1650

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda jamoada ishlash (teamwork) kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Maqolada Yaponiya (Tokkatsu tizimi - とっかつ), Finlandiya (Phenomenon-based learning) hamda AQSh (Social-Emotional Learning – SEL) va Buyuk Britaniya (PSHE) kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ma’naviy-axloqiy va ijtimoiylashuvga yo‘naltirilgan ta’lim tajribalari atroflicha tahlil qilingan. Xorijiy yondashuvlarning O‘zbekiston milliy ta’lim tizimi hamda “Tarbiya” fani o‘quv dasturlariga kontekstual moslashuvi (adaptatsiyasi) imkoniyatlari va metodik mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya fani, jamoada ishlash kompetensiyasi, Tokkatsu, PhenoBL, ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL), PSHE, pedogogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, milliy kontekst.

Abstract. This article examines the formation and development of teamwork and collaborative learning competencies among students within the framework of teaching the subject upbringing in general education schools. The study provides a comprehensive analysis of moral, ethical, and socialization-oriented educational practices from developed nations, including Japan (Tokkatsu system - とっかつ), Finland (Phenomenon-based learning), the USA (Social-Emotional Learning – SEL), and the UK (PSHE). Furthermore, it highlights the possibilities and methodical mechanisms for contextually adapting these foreign approaches into the national education system of Uzbekistan and the curriculum of the upbringing subject.

Keywords: subject of upbringing, teamwork competency, Tokkatsu, PhenoBL, social-emotional learning (SEL), PSHE, pedagogical technologies, interactive methods, national context.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы формирования и развития у учащихся компетенций командной работы (teamwork) в процессе преподавания предмета “Воспитание” в общеобразовательных школах. В статье всесторонне анализируется опыт развитых зарубежных стран в области духовно-нравственного и ориентированного на социализацию обучения, таких как Япония (система Tokkatsu - とっかつ), Финляндия (Phenomenon-based learning), США (Social-Emotional Learning – SEL) и Великобритания (PSHE). Освещены возможности и методические механизмы контекстуальной адаптации зарубежных подходов к национальной системе образования Узбекистана и учебным программам предмета “Воспитание”.

Ключевые слова: предмет “Воспитание”, компетенция командной работы, Токкатсу, PhenoBL, социально-эмоциональное обучение (SEL), PSHE, педагогические технологии, интерактивные методы, национальный контекст.

KIRISH. Bugungi zamonaviy XXI asr ta’lim paradigmasida o‘quvchilarning faqatgina akademik bilimlarni egallashi yetarli emasligi, balki ularda “soft skills” (yumshoq ko‘nikmalar), xususan, jamoada ishlash, muloqotga kirishish, hamkorlikda muammolarni hal etish hamda ijtimoiy ma’suliyatlilik kabi kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Yevropa Kengashi, YUNESKO hamda OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan ilgari surilgan ta’lim standartlarida hamkorlikda o‘rganish va jamoaviy harakat qilish asosiy tayanch kompetensiyalardan biri sifatida belgilangan. Bu jarayon vatanparvarlik, ahillik hamda hamjihatlikni rivojlanishiga xizmat qiladi.

“Tarbiya - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon” [1. 3-modda, 9-band].

O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanining joriy etilishi o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy, fuqarolik va ijtimoiy kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Biroq, ushbu fan doirasida o‘quvchilarning jamoada samarali faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish hamon amaliy metodika va moslashtirilgan xorijiy tajribalarga ehtiyoj sezmoqda. Shu maqsadda **“2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish” maqsadi taraqqiyot strategiyasida belgilangan edi [2. -42-maqsad].**

Tarbiya fanini o‘qitishda jamoaviylikni shakllantirish muhim tamoyillardan biri sifatida qarash mumkin. “O‘quvchilar jamoasi esa yuksak darajada uyushtirilgan guruh sifatida tushuniladi” [3.-207 b.]

Jamoada ishlash kompetensiyasi esa bu umumiy maqsadga erishish yo‘lida boshqalar bilan konstruktiv muloqot o‘rnatish, guruhdagi rollarni taqsimlash, emotsional intellektni namoyon etish hamda nizoli vaziyatlarni murosa yo‘li bilan hal qilish ko‘nikmalarining majmui hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-axloqiy va jamoaviy ta’lim berish tajribasini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish hamda ularning eng samarali elementlarini O‘zbekistondagi “Tarbiya” fani kontekstiga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi (methods). Ushbu tadqiqot kompleks ilmiy-pedagogik yondashuvlar hamda quyidagi metodlar majmuiga asoslanadi:

1.Qiyosiy-pedagogik tahlil (Comparative Analysis): Yaponiya, Finlandiya, AQSh va Buyuk Britaniyaning maktab ta’limida ijtimoiy-axloqiy tarbiya va jamoaviy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan dastur hamda konsepsiyalari qiyosiy o‘rganildi.

2.Kontekstual va tizimli tahlil (Contextual & Systemic Analysis):Xorijiy pedogogik modellar va interaktiv metodlarning O‘zbekiston umumta’lim maktablarining amaldagi “Tarbiya” fani o‘quv dasturlari va milliy-madaniy xususiyatlariga moslik darajasi baholandi.

3.Hujjatlar va adabiyotlar tahlili (Content Analysis):OECD “Future of Education and Skills 2030” loyihasi, Yaponiya MEXT (Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi) tavsiyalari, CASEL (Academic, Social, and Emotional Learning) standartlari hamda O‘zbekiston Respublika ta’lim markazining “Tarbiya” fani bo‘yicha konseptual hujjatlari va darsliklari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari (results). Xorijiy mamlakatlarning tarbiya va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tajribasi tahlil qilinganda, quyidagi asosiy konseptual modellar ajratib ko‘rsatildi:

Yaponiya tajribasi: Tokkatsu (Maxsus faoliyat) tizimi.Yaponiyada o‘quvchilarning jamoaviylik va hamkorlik ko‘nikmalari alohida akademik fanlar bilan birga, “Tokkatsu” とっかつ (Tokubetsu Katsudo) tizimi orqali shakllantiriladi. Bunda o‘quvchilar:

Guruhli o‘z-o‘zini boshqarish (Kakarikatsudo):Sinfdagi barcha yumushlar va tashkiliy masalalar kichik guruhlarga bo‘lingan holda navbat bilan bajariladi.

Birgalikda ovqatlanish va tozalash (Kyoshoku va Soji): O‘quvchilar jamoaviy mehnat va tenglik tamoyillarini kundalik amaliyotda egallaydilar.

Guruhli muammolarni hal qilish (Gakkyu Kiukai):Sinf jamoasi uchraydigan muammolarni birgalikda muhokama qiladi va bir ovozdan qaror qabul qiladi.

2. Finlandiya tajribasi: Hodisalarga asoslangan ta’lim (Phenomenon-based learning - PhenoBL)

Finlandiya ta’lim tizimida jamoada ishlash aniq bir fanning ichida emas, balki fanlararo integratsiya orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar muayyan hayotiy hodisani (masalan, “Ekotizim va barqaror rivojlanish” yoki “Raqamli jamiyatda inson”) guruhlarga bo‘lingan holda tadqiq qiladilar. Bu jarayonda:

O‘quvchilar o‘rtasida mas’uliyat va rollar bo‘linadi;

Tanqidiy fikrlash va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmasi kompleks rivojlanadi.

3. AQSh va Buyuk Britaniya tajribasi: SEL va PSHE modellari

AQShda keng qo‘llaniladigan SEL (Social-Emotional Learning) modeli 5 ta asosiy kompetensiyaga tayanadi: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalari va mas’uliyatli qaror qabul qilish. Buyuk Britaniyaning

PSHE (Personal, Social, Health and Economic education) dasturida esa o‘quvchilarning jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish va emotsional intellektni oshirishga alohida soatlar ajratilgan.

Xorijiy tajribalarning O‘zbekiston “Tarbiya” fani uchun kontekstual tahlili.

Qiyosiy tahlil natijalari quyidagi jadvalda jamlangan:

Mamlakat	Asosiy model	Yondashuv	Jamoada ishlashni rivojlantirish mexanizmi	O‘zbekiston “Tarbiya” faniga tatbiq etish imkoniyati
Yaponiya	Tokkatsu	Kundalik amaliy-jamoaviy faoliyat	Sinf boshqaruvi, soji (tozalash) va kakarikatsudo	Tarbiya" darslaridagi amaliy loyihalar va maktabdagi ijtimoiy-foydali mehnat jarayonlariga tatbiq etish
Finlandiya	Phenomenon-based learning	Fanlararo loyihaviy ta’lim	Real hayotiy muammolarni guruh bo‘lib yechish	“Tarbiya” fanini tarix, adabiyot va geografiya bilan integratsiyalashgan loyihalar orqali o‘qitish
AQSh	SEL (Social-Emotional Learning	Emotsional intellektni rivojlantirish	Jamoaviy hamkorlikni psixologik mashqlar orqali rivojlantirish	O‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini baholash va keys-stadi usullarini darslarga kiritish
Buyuk Britaniya	PSHE	Situatsion interaktiv mashqlar	Debatlar, jamoaviy rolli o‘yinlar	Modullarda muloqot madaniyati va nizolarni hal etish mavzularini interaktiv metodlar bilan boyitish

Muhokama (discussion). Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga ko‘r-ko‘rona (mexanik) ko‘chirish kutilgan samarani bermaydi. Shuning uchun ularni kontekstual moslashtirish zarurati yuzaga keladi. O‘zbekiston jamiyatida azaldan mavjud bo‘lgan mahallachilik, hasharchilik va jamoaviylik an’analari Yaponiyaning Tokkatsu modelidagi ijtimoiy mas’uliyat konsepsiyasiga juda yaqin turadi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda jamoada ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning kontekstual jihatlari quyidagilarni taqozo etadi:

1.Nazariyadan amaliyotga o‘tish: Hozirgi kunda “Tarbiya” darslarining muayyan qismi nazariy va ma’ruza shaklida o‘tiladi. Yaponiya va AQSh tajribasi shuni ko‘rsatadiki, jamoaviy kompetensiyalar faqat faoliyat orqali (learning by doing) shakllanadi. Dars soatlarida individual topshiriqlardan ko‘ra guruhli va loyihaviy ishlar ulushini kamida 50-60 foizga oshirish lozim.

2.Kichik guruhlarda ishlash (Cooperative Learning) texnologiyasi: Darslarda o‘quvchilarni 4-5 kishilik kichik guruhlarga bo‘lib, har bir o‘quvchiga aniq rolni (masalan, Lider, Kotib, Taymer-menedjer, Taqdimotchi, Nazoratchi) yuklash lozim. Bu o‘quvchilarda mas’uliyat va jamoaga bog‘liqlik hissini shakllantiradi.

3.Refleksiya va emotsional aloqa: Finlandiya va AQSh (SEL) tajribasida dars yakunida o‘quvchilar guruhning qanday ishlaganini va har bir a’zoning hissasini muhokama qiladi (Refleksiya bosqichi). “Tarbiya” darslarida ham guruhdagi munosabatlarni baholash va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash madaniyatini rivojlantirish lozim.

4.Milliy va zamonaviy qadriyatlar sintezi: Milliy “Hashar” tushunchasini zamonaviy “Team building” va ijtimoiy loyihalar shaklida boyitish lozim. Masalan, o‘quvchilar guruh bo‘lib maktab yoki mahalla uchun kichik ijtimoiy loyiha (masalan, “Yashil maktab”, “Keksalar holidan xabar olish”) tayyorlashlari va uni birgalikda amalga oshirishlari mumkin.

Xulosa va takliflar (conclusion). Xorijiy tajribalar va uning kontekstual tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Tarbiya” fani vositasida o‘quvchilarda jamoada ishlash kompetensiyalarini samarali shakllantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Tatbiq etilayotgan metodlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va milliy qadriyatlarimizga mos bo‘lishi lozim.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1.“Tarbiya” fani o‘quv dasturiga “Jamoaviy amaliy loyihalar” bo‘limini kiritish: O‘quv yili davomida o‘quvchilar guruhlarda kamida 2 ta ijtimoiy-axloqiy va ekologik yo‘nalishdagi loyihani amalga oshirishlarini yo‘lga qo‘yish.

2. Interaktiv va amaliy metodlarni kengaytirish: Dars jarayonlariga Yaponiya Tokkatsu tizimidagi guruhli muammolarni hal etish hamda SEL modelidagi emotsional intellektni rivojlantiruvchi keys-stadi mashqlarini doimiy ravishda tatbiq etish.

3.Baholash tizimini takomillashtirish: O‘quvchilarni baholashda faqat individual bilimlarni emas, balki guruh tarkibida ko‘rsatgan hamkorlik faoliyati, muloqot madaniyati va mas’uliyatini ham inobatga oluvchi rubrikalar (mezonlar) tizimini joriy etish.

4. O‘qituvchilar kvalifikatsiyasini oshirish: “Tarbiya” fani o‘qituvchilari uchun jamoada ishlash ko‘nikmalarini fasilitatsiya qilish va guruhli dinamikani boshqarish bo‘yicha maxsus trening va uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1.O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi o‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son farmoni. – Toshkent, 2022-yil, 28-yanvar.

3.Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi): O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta’lim sohasi bakalavriat yo‘nalishi uchun darslik/ M.X. To‘xtaxodiayeva, S.Nishonova, N.Sayidahmedov, M. Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N.Nishonova, N.Sayidahmedov; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. “Toshkent: “O‘zbekiston faylasutiari milliy jamiyati” nashriyoti. 2010. - 400 b.

4. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri (nazariya va amaliyot). – Chirchiq: TVPI “Universitet”. 2020

5. OECD . The Future of Education and Skills: Education 2030. OECD Publishing, Paris. 2018

6. Tsuneyoshi, R. . The Japanese Model of Schooling: Comparison with the United States. Routledge. 2018

7. Halinen, I. The Educational Reform in Finland. In: International Handbook of Curriculum Research. 2018

8. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL). CASEL's SEL Framework: What Are the Core Competence Areas and Where Are They Promoted? 2020